

FELNING VAZIFA SHAKLLARIGA KIRUVCHI SIFATDOSH SHAKLINING XUSUSIYATLARI

Sobirova Umida JDPI talabasi

Fe'lning sifatga xoslangan shakli sifatdosh deyiladi. Sifatdosh fe'l asosiga quyidagi qo'shimchalarni qo'shish bilan hosil bo'ladi: -gan, -kan, -qan— o'tgan zamon qo'shimchalari; -yotgan, -ayotgan— hozirgi zamon qo'shimchalari; -(a)r, -uvchi, -adigan, -yedigan— kelasi zamon qo'shimchalari.

Masalan: o'qigan bola, so'zlayotgan odam, keluvchi mehmonlar.

Ushbu qo'shimchalar bilan hosil qilingan sifatdoshlardan keyin ot kelishi shart. Agar ot kelmasdan vergul yoki nuqta ishlatilsa, bu fe'l sifatdosh emas zamon shakliga ega sof fe'l hisoblanadi.

Masalan: o'qilgan she'r— sifatdosh, she'r o'qilgan— sof fe'l.

Sifatdosh hech qachon shaxs-son qo'shimchasini qabul qilmaydi. Shaxs-son qo'shimchasini olgan sifatdosh shaklidagi fe'l ham sof fe'l hisoblanadi.

Masalan: Bu sherni yodlaganman.

Sifatdosh va sifat shaxs va narsaning belgisini bildirishi bilan bir-biriga o'xshaydi. Sifat shaxs va narsaning turg'un, barqaror belgisini ifodalaydi.

Masalan: bilimdon o'quvchi.

Sifatdosh asosi fe'l bo'lgani uchun ham shaxs va narsaning o'zgarish, harakat belgisini ifodalaydi.

Masalan: sinadigan bo'r.

Sifatdoshning sifatlik xususiyati:

1. Shaxs va narsaning belgisini bildiradi.
2. Sifatning so'rog'ini oladi.
3. Gapda aniqlovchi vazifasida keladi.

Sifatdoshning fe'llik xususiyati:

1.Asosi fe'l.

2.Tarkibida nisbat shakli bo'ladi.

Masalan:o'qitgan ustoz,tikilgan ko'ylak.

3. Tarkibida zamon shakli mavjuddir.

Masalan:ishlagan ustalar,tushintirayotgan o'qituvchi,boradigan joy.

4.Bo'lishli-bo'lishsizlik shakli bilan kelishi mumkin.

Masalan:o'qimagan o'quvchi.

Gap tarkibida sifatdoshdan keyin kelayotgan ot tushib qolib,otning ma'nosini sifatdosh anglatadi,so'rog'ini oladi. Bu hodisa sifatdoshning otlashishi deyiladi.

Masalan: intilganga tole yor,bilganlarimni aytdim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Nargiza Erkaboyeva "Hozirgi o'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami"

2.Otabek Shukurov "Uchtasi birda"Qarshi.2019.

3.U.Tursunov,A.Muxtorov "Hozirgi o'zbek adabiy tili"Toshkent.1992.